

## FAROBIY ASARLARIDA O‘RTA ASR IQTISODIY MASALALARI

**Tilabjonova Sevinch Shuxrat qizi**

*Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*E-mail: [tilabjonovasevinch@gmail.com](mailto:tilabjonovasevinch@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Abu Nasr Farobiy asarlari qisqacha talqini. Bu asarlarda yoritilgan fikr va g‘oyalar. Ularga yozilgan sharhlar. Abu Nasr Farobiy asarlarining qimmatli jihatlari. Qomusiy olimning jahon ilm-faniga qo‘shgan hissasi. Farobiy asarlarining G‘arb olimlari tomonidan o‘rganilishi. Farobiyning sotsiologiya va iqtisodiyot sohalariga oid fikr mulohazalari. Maqolada shu jihatlarga urg‘u qaratilgan.*

**Kalit so‘z:** *Abu Nasr Farobiy, “Ikkinchi muallim”, G‘arb, “Fozil odamlar shahri”, Adam Smit, Platon.*

O‘rta Osiyolik buyuk mutafakkirlardan biri hisoblanmish Abu Nasr Farobiy o‘rta asrlarning yetuk olimlaridan hisoblanadi. Qomusiy olimimiz o‘zining falsafiy qarashlari bilan ham mashhur hisoblanadi. Bu kishining “Ikkinchi muallim” deb atalishi ham bejiz emas albatta. Farobiyning asarlari sharqu-g‘arbda birdek mashhurdir. Ba’zi asarlarining Yevropa maktablarida darslik sifatida ishlatilishi ham so‘zimizning isboti bo‘la oladi.

Olimning ayniqsa “Fozil odamlar shahri” asari diqqatga sazovar bo‘lib, unda mamlakatni boshqarish, hokimlar faoliyati, iqtisodiyotni olib borish bilan bog‘liq bo‘lgan muhim go‘yalar keltiriladi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, Farobiy o‘z ustozlari Arastu g‘oyalarini har tomonlama talqin etadi va uni to‘ldirishga harakat qiladi, jamiyat shakllanishi uchun moddiy ehtiyojlarning ahamiyati haqidagi ta’limotni yaratdi, iqtisodiyot fanida muhim bo‘lgan “Ehtiyoj”ni ta’riflab berdi. U moddiy boyliklar yaratishda mehnatning va mehnat qurollari o‘rnini aniqlab berdi. Ayniqsa, “mehnat taqsimoti” masalalari mutafakkir asarlarida yaxshi yoritib berilgan. Mehnat taqsimoti to‘g‘risidagi g‘oya taniqli iqtisodchi Adam Smit ta’limotining (XVIII asr) asosidir.[1]

“Fozil odamlar shahri” asari Farobiyning shoh asari hisoblanadi. Ayni ushbu asarida olim ko‘plab masalalar qatorida ijtimoy-iqtisodiy masalalarga ham to‘htalib o‘tgan. Ko‘rinib turganidek bu yerda aytilayotgan masalalar barchasi muhim va e’tiborga molik hisoblanadi. Biz buni taniqli iqtisodchi Adam Smit o‘z ta’limotini ushbu g‘oyaga asoslanib qurgani orqali ham bilib olsak bo‘ladi. Albatta bularning bari biz uchun g‘ururli ishlardir.

Farobiy bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan moddiy ehtiyojlar to‘g‘risida ta’limot yaratdi. Uning fikricha, odamlarning ehtiyoji jamiyat shakllanishining asosiy sababidir. «Tabiatan har bir odam shunday yaralganki, u yashashi va kamol topishi uchun

ko‘p narsalarga ehtiyoj sezadi. Ularni u bir o‘zi topa olmaydi va ularga erishish uchun kishilar jamoasiga muhtoj bo‘ladiki, uning har biri u ehtiyoj sezayotgan narsalardan biron-birini beradi. Bunda har bir odam boshqalarga nisbatan xuddi shunday holatda bo‘ladi». Jamiyat shakllanishi uchun moddiy ehtiyojlar to‘g‘risida bunday tushuncha o‘sha davrdagi ilg‘or fikrlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, moddiy boylik yaratishdagi mehnat va mehnat qurollarining ahamiyatini, har xil hunar turlarini uqtirib o‘tgach, qullikka keskin qarshi chiqdi.[2]

Ehtiyojlar masalasi: odamzod tirik ekan tugamaydigan masaladir. Odamning dunyoga kelish jarayonining o‘zi farzandga bo‘lgan ehtiyoj natijasida bo‘ladi. Va undan keying jarayonlarni olaylik yegulikka bo‘lgan ehtiyoj, muloqotga bo‘gan ehtiyoj, ilm-ma‘rifatli bo‘lish ehtiyoji, daromad topish va yaxshi yashashlik bularning bari kichik va kundalik ehtiyojlardir. Bu harakatlar mudom takrorlanadi va hech qachon tugamaydigan ehtiyojlardir. Bu kabi insonga doim kerak bo‘ladigan va kundalik hayoti bilan bog‘liq bog‘liq masalani payqash va unga oid ilmlarni yozib qoldirishligi Farobiy bobomizning yuksak aql zakovatlarining bir nishonasidir.

“Avvalo yer va joylarning miqdori, keyin ularning egalari va tutgan o‘rinlari, so‘ngra nihoyatda zarur narsalar bo‘lgan oziq-ovqatlar, ekiladigan yerlar, saroy va shaxsiy uylar miqdori hisobga olinishi zarur”. Forobiy Platonning: “Taqsimot juda qiyin ish, lekin juda zarur ishdir”, – degan fikrini alohida ko‘rsatib o‘tadi.[3]

Yuqoridagi fikr orqali biz Farobiyning yana bir dolzarb va zamon va makon talab qilmaydigan masalaga e‘tibor berganliklarini va bu haqida o‘zlarining qimmatli fikrlarini qoldirganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Inson hayotining o‘zi taqsimot va rejalashdan iboratdir. Biror nimaning hisobini olar ekanmiz Farobiyning fikrlarini yodga olishimiz kerak. Farobiy o‘z taqsimotida e‘tibor qaratishimiz kerak bo‘lgan narsalar va ularning ketmakteligini ko‘rsatib o‘tgan. Bunga ko‘ra avvalo uy-joy uchun yer ajratish kerakligi undan keyin dehqonchilik uchun ekin maydonlari ajratilishini ta‘kidlaganlar. Undan keyin esa saroylar va yuqori martabalari kishilar uchun hovli uylarga yer ajratilishini aytganlar. Lekin bu aytilganlarga amal qilinmasligiga guvoh bo‘lganmiz.

Farobiyning bu qadar teran va chuqur dunyoqarash egasi bo‘lishliklarining asosiy sababi sifatida falsafaning ona vatini bo‘lmish Yunoniston olimlarining asarlarini ko‘p mutolaa qilganliklari va asarlariga ko‘plab sharhlar yozganliklarini ko‘rsatishligimiz mumkin. Bu borada Farobiy o‘zlariga ustoz sifatida bilganlari va ijodiga eng ko‘p qiziqqan Palatonni olishimiz mumkin.

Tarixda shunday voqea bo‘lib o‘tganligi qayd etiladi. Qomusiy olim Ibn Sino Arastuning “Metafizika” asarini 40 marta o‘qib ham tushuna olmagan ekan. U surunkali mutaoladan charchagan, bozor aylanishni ixtiyor etadi. Baxtli tasodifni qarangki, bozordan xarid qilgan

kitobi Forobiyning Arastu asariga yozgan sharhlari ekan. Ibn Sino kitobni bir marta o‘qib chiqishdayoq Arastuning “Metafizika” asari mohiyatiga to‘la tushunib yetadi.[1]

Albatta bu kichik hikoyani so‘nggi so‘z o‘rnida keltirdik. Qomusiy olimimiz haqida qancha gapirsak shuncha kam. Ularning hayoti va ijodlarining o‘rganilishining va shu kunga bu o‘rganish ishlarining tugamaganligi ularning qanchalik boy madaniy me’ros qoldirib ketganliklarining isbotidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. O‘quv qo‘llanma. A. Razzoqov, Sh. Toshmatov, N. O‘rmonov, P. Xoshimov, F. Egamberdiyev. Toshkent – 2005. 59-60-betlar.
2. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi (Darslik). Toshmatov Sh.X., Asatullaev X.S., Allaberganov Z.G. Toshkent – 2018. 47-bet.
3. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. O‘quv qo‘llanma. D.S. Djumonov, Z.G. Allaberganov. “Iqtisod-Moliya”. Toshkent – 2017. 47-bet.